



Jadidchilik harakati va uning ta'lim-tarbiyaviy qarashlarining shakllanish bosqichlari

Abdullayev Ro'zimuxammad Akramjon o'g'li –

Farg'ona davlat universiteti doktoranti

E-mail: abdullayevrozimuhammad232@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-0197-8145>

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida muhim burilish yasagan jadidchilik harakati hamda uning ta'lim-tarbiyaviy qarashlarining shakllanish jarayoni tarixiy-pedagogik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Jadidchilik harakatining paydo bo'lishiga olib kelgan ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy omillar, an'anaviy ta'lim tizimining inqirozi, yangi usul maktablarining vujudga kelishi va jadid pedagogikasining konseptual asoslari bosqichma-bosqich yoritiladi. Tadqiqot davomida tarixiy-genetik, tarixiy-taqqoslash, kontent-tahlil, aksiologik va pedagogik-germenevtik metodlardan foydalanildi. Natijalar jadidchilik harakati nafaqat madaniy yoki siyosiy hodisa, balki milliy ta'lim tizimini yangilashga qaratilgan mukammal pedagogik konsepsiya ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ma'rifatparvarlik, ta'lim islohoti, yangi usul maktablari, milliy uyg'onish, pedagogik tafakkur.

Джадидское движение и этапы формирования его образовательно-воспитательных взглядов

Аннотация. В данной статье на основе историко-педагогического подхода анализируется джадидское движение, сыгравшее важную роль в социально-культурной жизни Туркестана в конце XIX начале XX века, а также процесс формирования его образовательных и воспитательных взглядов. Поэтапно раскрываются социально-политические и духовные факторы, обусловившие возникновение джадидского движения, кризис традиционной системы

образования, становление школ нового метода и концептуальные основы джадидской педагогики. В ходе исследования использованы историко-генетический, историко-сравнительный методы, контент-анализ, аксиологический и педагогико-герменевтический подходы. Результаты показывают, что джадидское движение являлось не только культурным или политическим явлением, но и целостной педагогической концепцией, направленной на модернизацию национальной системы образования.

Ключевые слова: джадидизм, просвещение, реформа образования, школы нового метода, национальное возрождение, педагогическое мышление.

The jadid movement and the stages of formation of its educational views

Annotation. This article analyzes the Jadid movement, which brought about a significant turning point in the socio-cultural life of Turkestan at the end of the 19th and the beginning of the 20th centuries, as well as the formation of its educational ideas, based on a historical-pedagogical approach. The socio-political and spiritual factors that led to the emergence of the Jadid movement, the crisis of the traditional education system, the establishment of new-method schools, and the conceptual foundations of Jadid pedagogy are examined step by step. The study employed historical-genetic, historical-comparative, content analysis, axiological, and pedagogical-hermeneutic methods. The findings demonstrate that the Jadid movement was not merely a cultural or political phenomenon, but also a comprehensive pedagogical concept aimed at reforming and modernizing the national education system.

Keywords: jadidism, enlightenment, education reform, new method schools, national awakening, pedagogical thinking.

KIRISH

XX asr boshlarida Turkiston hududida shakllangan jadidchilik harakati milliy ong, ma'rifat va ta'lim tizimini yangilashga qaratilgan chuqur ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida tarixda alohida o'rin tutadi. Jadidlar mustamlakachilik sharoitida yashagan jamiyatni jaholat va savodsizlikdan chiqarishning yagona yo'li sifatida ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilishni ko'rdilar. Ularning pedagogik qarashlari an'anaviy ta'limni inkor etish emas, balki uni zamon talablariga mos ravishda yangilash, ta'lim mazmunini ilmiylik va ma'rifatparvarlik asosida boyitishga qaratilgan edi. Shu jihatdan jadidchilik harakati milliy pedagogik tafakkur taraqqiyotida tub burilish yasagan tarixiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ham ta'limni jamiyat taraqqiyotining asosiy bo'g'ini sifatida talqin etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan bir qator farmon va qarorlarda milliy ma'naviy merosni chuqur o'rganish, jadidlar merosini ilmiy asosda tadqiq etish va ta'lim tizimiga tatbiq etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida jadidlar merosiga alohida urg'u berilib, "Jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz, bu bebaho boylikni yoshlar ongiga singdirishimiz zarur", deb ta'kidlangan. Ushbu fikr jadidchilik harakatini faqat

tarixiy hodisa sifatida emas, balki bugungi ta'lim va tarbiya tizimi uchun ilmiy-amaliy manba sifatida o'rganish zaruratini yanada kuchaytiradi. Prezidentning 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da ham ta'lim mazmunini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida boyitish, ta'lim jarayonida ma'naviy-tarbiyaviy yo'nalishni kuchaytirish muhim vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur konsepsiyada ko'zda tutilgan maqsadlar jadid pedagogikasining asosiy tamoyillari ilm-ma'rifat, axloqiy komillik va ijtimoiy mas'uliyat g'oyalari bilan uzviy bog'liqdir.

Jadidchilik harakati asosan tarixiy, adabiy yoki ijtimoiy-siyosiy jihatdan o'rganilgan bo'lsada, uning ta'lim-tarbiyaviy qarashlarini izchil pedagogik konsepsiya sifatida tahlil qilishga ehtiyoj saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, jadid pedagogikasining shakllanish bosqichlarini, uning metodologik asoslarini va zamonaviy ta'lim paradigmalari bilan uzviyligini aniqlash bugungi ta'lim islohotlari nuqtayi nazaridan dolzarb ilmiy masala hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi jadidchilik harakati va uning ta'lim-tarbiyaviy qarashlarining shakllanish bosqichlarini tarixiy-pedagogik yondashuv asosida ilmiy tahlil qilishdan iborat. O'rganishlar jarayonida jadid pedagogikasining vujudga kelish omillari, rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy ta'lim tizimi bilan mantiqiy uzviyligi aniqlanadi. Jadid pedagogik merosini bugungi ta'lim amaliyotiga tatbiq etish, talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish va milliy pedagogik tafakkurni boyitishga xizmat qilishi nazarda tutilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolada jadidchilik harakati hamda uning ta'lim-tarbiyaviy qarashlarining shakllanish jarayoni ilmiy-metodologik asosda yoritildi. Ishni amalga oshirishda tarixiy-pedagogik, nazariy-analitik va pedagogik-germenevtik yondashuvlarning o'zaro integratsiyasiga tayangan holda kompleks metodologik tizim ishlab chiqildi. Metodologiyani belgilashda jadidchilik harakatining murakkab tarixiy evolyutsiyasi, uning ijtimoiy-siyosiy va madaniy konteksti hamda pedagogik mazmunining ko'p qatlamli xususiyati asosiy ilmiy mezon sifatida qabul qilindi. Tanlangan metodlar majmui qo'yilgan maqsad va vazifalarning izchil bajarilishini, olingan xulosalarning nazariy asoslanganligi va ilmiy ishonchliligini ta'minlashga xizmat qildi.

Konseptual asos sifatida tarixiy-pedagogik yondashuv tanlandi. Mazkur yondashuv jadidchilik harakatini muayyan tarixiy davrning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma'naviy omillari bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilish imkonini berdi. T.S.Dorokhova tarixiylik (historizm) prinsipining mohiyatini izohlar ekan, pedagogik hodisalarni ularning vujudga kelish sharoiti, rivojlanish bosqichlari va ijtimoiy determinantlari bilan birgalikda o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. Shu asosda jadidlarning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari individual mulohazalar yig'indisi sifatida emas, balki jamiyatni modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan yaxlit pedagogik konsepsiya sifatida talqin qilindi. Tarixiy-genetik metod jadid pedagogikasining shakllanish dinamikasini bosqichma-bosqich ochib berishda qo'llanildi. Ushbu metod orqali ma'rifiy uyg'onish g'oyalaridan boshlab yangi usul maktablarining tashkil topishi va jadid pedagogik qarashlarining tizimlashuvigacha bo'lgan uzluksiz taraqqiyot zanjiri tahlil qilindi. B.M. Bim-Badning fikriga ko'ra, pedagogik g'oyalarni ularning tarixiy shakllanish jarayoni va ijtimoiy-madaniy kontekstidan ajratgan holda talqin etish ilmiy jihatdan yetarli asosga ega emas; aynan tarixiy tahlilgina ularning mazmun-mohiyati va rivojlanish yo'nalishini aniqlash imkonini beradi. Tarixiy-genetik tahlil natijasida jadid pedagogikasi tasodifiy qarashlar majmui emas, balki muayyan ijtimoiy ehtiyojlar va milliy taraqqiyot zaruratidan kelib chiqqan tizimli pedagogik hodisa ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Jadid mutafakkirlarining pedagogik merosini tizimli o'rganishda kontent-tahlil metodidan foydalanildi. A.Avloniy, M.Behbudiy, A.Fitrat hamda Munavvar

qori Abdurashidxonovning asarlari, darsliklari va publitsistik chiqishlari mazmuniy jihatdan tahlil qilinib, ularda takroran uchraydigan pedagogik tushunchalar, tarbiyaviy tamoyillar va konseptual g'oyalar aniqlashtirildi. Xususan, A. Avloniy tomonidan ilgari surilgan "tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat masalasidir" degan g'oya tarbiyani jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili sifatida talqin etadi va jadid pedagogikasining aksiologik asoslarini ifodalaydi. B.Qosimov jadidchilikning pedagogik mohiyatini sharhlar ekan, jadidlar ilm-ma'rifatni ijtimoiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida e'tirof etganini, axloqiy komillikni tarbiya markaziga qo'yganini hamda milliy ong va mas'uliyat tuyg'usini shakllantirishni bosh maqsad sifatida belgilaganini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv jadid pedagogikasida ta'lim mazmuni va tarbiyaviy yo'nalishning uzviyligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

Pedagogik-germenevtik yondashuv jadid matnlarini talqin qilishda metodologik asos sifatida qo'llanildi. H.G.Gadamer talqin jarayonini tarixiy ufqlar muloqoti sifatida izohlaydi va matnni tushunish uni vujudga keltirgan ijtimoiy-madaniy kontekst bilan uyg'un holda amalga oshirilishi zarurligini ta'kidlaydi. Mazkur yondashuv jadid pedagogik merosini zamonaviy kategoriyalar doirasida sun'iy talqin etmasdan, uning asl mazmunini saqlagan holda ilmiy sharhlash imkonini berdi. Metodologik yondashuvning muayyan chegarasi shundaki, tahlil asosan yozma tarixiy va pedagogik manbalarga tayandi hamda empirik ma'lumotlarni qamrab olmadi. Biroq bu holat ilmiy natijalarning qiymatini pasaytirmaydi, aksincha, jadid pedagogikasining nazariy va tarixiy mohiyatini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

1-rasm

Jadidchilik harakatining ta'limiy-tarbiyaviy shakllanish bosqichining pedagogik tahlili				
Jadidchilikning rivojlanish bosqichi	Ijtimoiy-pedagogik ehtiyoj	Ta'limga oid asosiy g'oyalar	Didaktik yondashuv (aniqlashtirilgan)	Zamonaviy ta'lim bilan uzviylik
Ma'rifiy uyg'onish davri (XIX asr oxiri)	Savodsizlik, jaholat, ta'lim inqirozi	Ilm va ma'rifat orqali ongni uyg'otish	Axloqiy fikrlashni uyg'onish, shakllantirish, Savod o'rgatishga yo'naltirilgan, tushuntirishga asoslangan boshlang'ich didaktika	Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, Axloqiy uyg'onish, ongli fikrlashni shakllantirish
Yangi usul maktablari shakllanishi (XIX–XX asr bo'g'ini)	Ta'lim mazmunining zamon talablariga mos kelmasligi	Zamonaviy fanlar va yangi o'qitish usullari orqali ta'limni yangilash	Fonetik o'qitish, rejalashtirilgan dars, ko'rgazmalilik	Kompetensiyaviy yondashuv, Intizom, mas'uliyat, mehnatsevarlik
Pedagogik konsepsiya sifatida yetuklashuv (XX asr boshi)	Milliy taraqqiyot va ijtimoiy mas'uliyat ehtiyoji	Ta'lim va tarbiya birligini ta'minlash	Integrativ yondashuv, fanlararo bog'liqlik	Vatanparvarlik, ijtimoiy faollik, Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim

1-rasmda jadidchilik harakatining ta'limiy-tarbiyaviy qarashlari ijtimoiy-pedagogik ehtiyojlar, ta'limiy g'oyalar va didaktik yondashuvlar uzviyligida ifodalangan. Umuman olganda, mazkur tadqiqot metodologiyasi ichki mantiqqa ega, bir-birini to'ldiruvchi va uzviy bog'langan ko'p komponentli tizim sifatida shakllantirildi. Tarixiy-pedagogik, tarixiy-genetik va tarixiy-taqqoshlash metodlari tadqiqotning izchilligini ta'minlagan bo'lsa, kontent-tahlil, aksiologik va germenevtik yondashuvlar jadid pedagogikasining mazmuniy va qadriyatli jihatlarini chuqur ochib berishga xizmat qildi. Tanlangan metodologiya

tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini, xulosalarning mantiqiy izchilligini va umumlashtirishlarning ishonchligini to'liq ta'minlaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma'rifatchilik harakati Turkiston jamiyatining muayyan tarixiy davrda yuzaga kelgan ijtimoiy-pedagogik ehtiyojlariga javoban shakllangan izchil va mantiqan asoslangan pedagogik hodisa ekanini ko'rsatdi. Tarixiy-pedagogik va tarixiy-genetik tahlil natijalari XIX asr oxiri XX asr boshlarida an'anaviy maktab-madrasa tizimi ta'lim mazmuni, o'qitish usullari va tarbiyaviy yo'nalishi jihatidan zamon talablariga javob bermay qolganini tasdiqladi. Ayniqsa, yodlashga asoslangan ta'lim usullarining ustuvorligi, dunyoviy fanlarga cheklangan e'tibor va ta'lim jarayonida shaxs rivojiga yetarli sharoit yaratilmagani jamiyatning intellektual taraqqiyotiga to'sqinlik qilgan.

Mahmudho'ja Behbudiy ta'lim masalasiga alohida urg'u berib, "xalqni uyg'otmoq uchun eng avvalo maktabni isloh etmoq lozim", deb ta'kidlaydi. Ushbu fikr jadidchilik harakatining dastlabki g'oyaviy yo'nalishini aniqlashda muhim metodik natija bo'lib xizmat qildi. Tarixiy-genetik tahlil natijasida jadidchilik harakatining keyingi bosqichi amaliy pedagogik faoliyat bilan bog'liqligi aniqlandi. Aynan shu bosqichda yangi usul maktablari tashkil etilib, ta'lim jarayoniga fonetik o'qitish usuli joriy qilindi, darslar rejalashtirilgan holda olib borila boshlandi hamda ta'lim mazmuniga dunyoviy fanlar kiritildi. Abdurauf Fitrat jadid maktablarining ijtimoiy ahamiyatini izohlar ekan, yangi usuldagi maktablar xalqni ilm-ma'rifatga, mustaqil fikrlashga hamda zamon talablari bilan hamnafas bo'lishga yo'naltirishini ta'kidlaydi. Tadqiqot natijalari ushbu maktablar jadid pedagogikasining nazariy qarashlarini amaliy tizimga aylantirganini ko'rsatdi.

Kontent-tahlil natijalari jadid mutafakkirlarining pedagogik merosida ta'lim va tarbiya masalalari ajralmas birlikda qaralganini aniqladi. Jadidlar uchun bilim berish jarayoni shaxsning axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy kamoloti bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Abdulla Avloniy ta'lim va tarbiyaning uzviy birligini alohida ta'kidlab, tarbiyasiz ta'limni mazmunsiz va samarasiz jarayon sifatida baholaydi. Ushbu qarash tadqiqot natijalarida jadid pedagogikasining barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilganini asoslovchi muhim dalil sifatida namoyon bo'ladi. Tarixiy-taqqoshlash metodi natijalari shuni ko'rsatdiki, jadidlar an'anaviy ta'lim tizimini to'liq inkor etmaganlar, balki uni zamon talablariga mos ravishda isloh qilishga intilganlar. Qiyosiy tahlil an'anaviy maktablarda ustuvor bo'lgan yodlashga asoslangan ta'lim usullariga nisbatan jadid maktablarda tushunishga, mustaqil fikrlashga va amaliy bilimga yo'naltirilgan yondashuv ustun bo'lganini ko'rsatdi. B. Qosimov jadidchilik harakatini milliy madaniyat va ta'lim tafakkurini yangilashga qaratilgan jarayon sifatida baholab, jadid pedagogikasini an'anani inkor etmagan, balki unga tayangan holda modernlashgan ta'lim modeli sifatida talqin qiladi.. Ushbu xulosa jadidchilik pedagogikasining evolyutsion xarakterga ega ekanini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Jadidlar ta'limni nafaqat bilim berish vositasi, balki milliy ongni shakllantirish va jamiyatni ma'naviy jihatdan yangilash mexanizmi sifatida talqin qilganlar. B. Qosimov jadidchilik harakatining mohiyatini izohlar ekan, jadidlarning pedagogik qarashlari milliy qadriyatlar zaminida shakllangan holda zamonaviy ilm-ma'rifiy tafakkur bilan uyg'unlashganini ta'kidlaydi. Tadqiqot natijalari ushbu yondashuv bugungi ta'lim paradigmalari bilan mazmunan mos kelishini ko'rsatdi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari jadidchilik harakati va uning ta'lim-tarbiyaviy qarashlari tarixiy rivoj jarayonida shakllangan, ichki mantiqqa ega bo'lgan va jamiyat ehtiyojlariga mos pedagogik tizim ekanini tasdiqlaydi. Jadid pedagogikasi milliy ta'lim tarixida uzluksiz rivojlanish zanjirining muhim bo'g'ini sifatida namoyon bo'lib, zamonaviy ta'lim islohotlari uchun ham nazariy va metodik jihatdan muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Bu holat jadidchilik pedagogikasini zamonaviy ta'lim nazariyasi bilan mantiqan bog'lash uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, jadid pedagogikasining markazida ta'limni jamiyatni modernizatsiya qilishning asosiy mexanizmi sifatida talqin qilish g'oyasi turadi. Jadidlar ta'limni faqat bilim berish jarayoni sifatida emas, balki shaxsning ma'naviy-axloqiy kamoloti va ijtimoiy faolligini shakllantiruvchi omil sifatida ko'rganlar.

Abdulla Avloniy ilm va tarbiyaning jamiyat hayotidagi hal qiluvchi ahamiyatini ta'kidlab, ularni millat hayoti va taraqqiyotining asosiy tayanchi sifatida baholaydi hamda tarbiasiz va ilmsiz jamiyatning rivoji mumkin emasligini uqtiradi. Ushbu fikr tadqiqot natijalarida aniqlangan jadid pedagogikasining tarbiyaviy yo'nalishi bilan to'liq mos keladi.

Jadidlar tomonidan ilgari surilgan ta'lim va tarbiya birligi g'oyasi bugungi kompetensiyaviy yondashuvning asosiy tamoyillari bilan mazmunan uyg'unlashadi. Zamonaviy pedagogikada shaxsning bilim, ko'nikma va qadriyatlar tizimini bir butunlikda rivojlantirish zarurati ta'kidlanadi. Kompetensiyaviy yondashuvning tarixiy-pedagogik ildizlari mavjudligi I.A.Zimnyaya tomonidan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jadid pedagogik merosi shaxsda bilim, ko'nikma, qadriyat va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bu jihatdan u zamonaviy ta'limning kompetensiyaviy modeli bilan mazmunan uyg'unlashadi. Mazkur yondashuv jadid pedagogikasining bugungi ta'lim islohotlari uchun dolzarb ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Muhokama jarayonida yangi usul maktablarining pedagogik ahamiyati alohida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari ushbu maktablar an'anaviy ta'lim tizimidan keskin uzilish emas, balki isloh qilingan davomiylik shakli sifatida namoyon bo'lganini ko'rsatdi. Jadidlar ta'lim tizimini yangilash jarayonida milliy an'analarni saqlab qolishga intilgan holda, uni zamon talablariga moslashtirishga harakat qilganlar.

Abdurauf Fitrat ta'lim jarayonidagi jamiyat islohotlarini mavjud an'ana va qadriyatlarni inkor etish emas, balki ularni zamon talablariga mos holda rivojlantirishga yo'naltirilgan taraqqiyot yo'li sifatida talqin qiladi. Ushbu qarash jadid pedagogikasining evolyutsion xarakterga ega ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi. Shuningdek, tadqiqot natijalari jadid pedagogikasida o'qituvchi shaxsiga berilgan yuksak bahoni aniqlash imkonini berdi. Jadidlar o'qituvchini faqat bilim beruvchi emas, balki jamiyatni uyg'otuvchi, ma'naviy mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan ijtimoiy yetakchi sifatida talqin qilganlar. N.Karimov jadidchilik harakatini tahlil qilar ekan, jadidlar pedagog shaxsini milliy ong va ma'naviyatni shakllantiruvchi asosiy subyekt sifatida baholaganini ta'kidlaydi. Bu qarashlar bugungi kunda pedagog shaxsining kasbiy va ma'naviy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar bilan mantiqan uyg'unlashadi. Jadid pedagogikasida ilm-ma'rifat, axloqiy komillik, vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi qadriyatlar markaziy o'rin egallagan. Jadidlar ta'limni milliy o'zlikni anglash va jamiyatni ma'naviy jihatdan yangilash vositasi sifatida talqin qilganlar. H.Boltaboyev jadidlar merosini umumlashtirar ekan, jadid pedagogik qarashlari milliy qadriyatlarga tayangan holda zamonaviy bilim va tafakkur bilan sintezlangan holda shakllanganini ta'kidlaydi. Umuman olganda, muhokama qilingan natijalar jadidchilik harakatini zamonaviy ta'lim tizimi uchun tarixiy tajriba emas, balki nazariy va metodik jihatdan dolzarb manba sifatida baholash imkonini beradi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot jadidchilik harakati va uning ta'lim-tarbiyaviy qarashlari Turkiston jamiyatining muayyan tarixiy bosqichida yuzaga kelgan ijtimoiy-pedagogik ehtiyojlarga javoban shakllangan izchil va konseptual pedagogik hodisa ekanini ilmiy asosda tasdiqladi. Tadqiqot natijalari jadidchilik harakatini faqat madaniy yoki ijtimoiy-siyosiy jarayon sifatida emas, balki milliy ta'lim tafakkurini modernizatsiya qilishga qaratilgan puxta pedagogik konsepsiya sifatida talqin qilish imkonini berdi. O'tkazilgan tarixiy-pedagogik va tarixiy-genetik tahlillar natijasida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida an'anaviy maktab-madrassa tizimi zamon talablariga javob bermay qolganini, aynan shu holat jadidlar tomonidan ta'lim islohotlarini boshlash zaruratini keltirib chiqarganini ko'rsatdi. Jadidlar savodsizlik va

jaholatni jamiyat taraqqiyotining asosiy to'sig'i sifatida baholab, ta'limni milliy uyg'onish va ijtimoiy yangilanishning markaziy omili sifatida ilgari surdilar. Natijada jadidchilik pedagogikasi nazariy g'oyalardan amaliy ta'lim tizimiga aylangan holda shakllandi.

Jadid pedagogikasining asosiy tamoyillaridan biri sifatida ta'lim va tarbiya birligi g'oyasi, bilim berish jarayonini shaxsning axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy kamoloti bilan uzviy bog'liq holda olib borishni muhim deb hisoblaganlar. Ushbu yondashuv bugungi kunda ta'lim jarayonida ustuvor bo'lib borayotgan shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlarning tarixiy ildizlari aynan jadid pedagogikasiga borib taqalishini ko'rsatadi. Shuningdek, tadqiqotda jadid pedagogikasida o'qituvchi shaxsiga berilgan yuksak ijtimoiy va ma'naviy baho alohida ta'kidlandi. Jadidlar pedagogni jamiyatni uyg'otuvchi, yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan kamol toptiruvchi yetakchi shaxs sifatida talqin qilganlar. Ushbu qarashlar bugungi kunda pedagog shaxsining kasbiy, ma'naviy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy talablarga to'liq mos keladi. Umuman olganda, jadidchilik harakati va uning ta'lim-tarbiyaviy qarashlarini zamonaviy pedagogika fanining muhim tarixiy-nazariy manbalaridan biri sifatida baholash imkonini beradi. Jadid pedagogik merosini chuqur o'rganish va uni zamonaviy ta'lim amaliyotiga ijodiy tatbiq etish ta'lim sifatini oshirish, talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish hamda milliy pedagogik tafakkurning uzviy taraqqiyotini ta'minlash uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmon. "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" to'g'risidagi PF-5712-son Farmon.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son Qaror.
4. R.X.Jo'rayev Jadidchilik pedagogikasi va zamonaviy ta'lim. – Toshkent, – 2018, 112 b.
5. Sh.Shaturayeva Jadid pedagogik merosi va zamonaviy ta'lim. – Toshkent –2019, 64 b.
6. H.Boltaboyev Jadidlar estetikasi va ma'naviy tafakkuri. – Toshkent: Fan, 2011.
7. N.Karimov Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
8. Rajabov Q. Turkistonda jadidchilik harakati tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
9. A.Abduazizov Jadid pedagogik tafakkuri va uning taraqqiyot bosqichlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
10. B.To'raqulov O'zbek pedagogik fikri taraqqiyoti tarixidan. – Toshkent: Ma'naviyat, 2018.
11. I.Ergashev Turkiston jadidlarining ma'rifiy faoliyati. – Toshkent: Tafakkur, 2022.
12. Shamsutdinov R. Jadid maktablari va ta'lim islohoti. – Toshkent: Universitet, 2021.
13. Maqsudov, U. B., & Akramjon o'g, A. R. Z. (2023). Talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini jadid pedagogikasi vositasida rivojlantirishning imkoniyatlari. Farg'ona davlat universiteti, (6), 10-10.